



Oliy ta'lim muassasalari yoshlari o'rtasida "Milliy madaniyat" treninglarini tashkil etishning ahamiyati

Maxmudova Aziza Azamat qizi

*Termiz davlat universiteti Milliy libos va san'at fakulteti
Madaniyat va san'at muassasalarini tashkil etish hamda
boshqarish yo'nalishi 3-kurs talabasi*

Annotatsiya: Ushbu maqolani yozishdan maqsad talabalarning ma'naviyatini va madaniyatini yanada yuksaltirish, millatning haqiqiy tarixi va oziga xosligi haqida ma'lumot berish, yoshlar ongida ma'naviy qadriyatlarni rivojlantirish va mustahkamlash, xalqimizning o'tmishi va boy tarixidan faxrlanish tuyg'ularini yanada ko'proq shakllantirish, vaziyatni to'g'ri baholash va odamlarga insoniylik nuqtai nazaridan tog'ri va chiroyli muomalada bo'lish ko'nikmalarini hosil qilish, milliy ruhni yosh avlod qalbiga kuchliroq singdirishdan iborat.

Tayanch so'zlar: milliy, madaniyat, ma'naviyat, ong, qadritar, yoshlar, milliy ruh, avlod, ta'lim, barkamol, immunitet, kurash, kelajak, baholash, vaziyat, ko'nikma, tarix, muomala, insoniylik, vaqt, ong, vazifa, avlod, kreativ, milliy madaniyat, for students, xalq.

Qayd etish joizki, yoshlik inson umrining eng nozik davri hisoblanadi. Mamlakatimiz aholisining asosiy qismini yosh yigit-qizlar tashkil etadi. Ularning talim olishi, kasb-hunar egallashi uchun keng shart-sharoitlar yaratilgan. Shu bilan birga, yoshlarning bosh vaqtini mazmunli o'tkazishni tashkil etish dolzarb masala hisoblanadi. Jamiyat yoshlar ongida manaviy qadriyatlarni rivojlantirmay va mustahkamlamay turib oz istiqboliga erisha olmaydi. Ammo hozirgi kunda yoshlar o'rtasida kuzatilayotgan vaqtning to'g'ri taqsimlay olmaslik va buning oqibatida yuzaga kelayotgan salbiy holatlar, muomala madaniyati, kiyinish madaniyati, so'zlashish odobi, kattalarga hurmat, jamoat joylarida odob – axloq qoidalariga amal qilmaslik holatlari kuzatilmoqda. Oliy ta'lim muassasalari talaba-yoshlari o'rtasida kreativ "Milliy madaniyat" va "For students" treninglarini tashkil etish orqali ushbu muammolarga yechim topishni maqsad qilgaman.

Oliy ta'lim muassasalari talaba-yoshlari ortasida haftasiga 1 martadan "Milliy madaniyat" treninglarini o'tkazishdan maqsad: talabalarning ma'naviyatini va madaniyatini yanada yuksaltirish, millatning haqiqiy tarixi va oziga xosligi haqida ma'lumot berish, yoshlar ongida ma'naviy qadriyatlarni rivojlantirish va mustahkamlash, xalqimizning o'tmishi va boy tarixidan faxrlanish tuygularini yanada ko'proq shakllantirish, vaziyatni to'g'ri baholash va odamlarga insoniylik nuqtai nazaridan to'g'ri va chiroyli muomalada bolish konikmalarini hosil qilish, milliy ruhni yosh avlod qalbiga kuchliroq singdirishdan iborat.



Madaniyat, avvalo, ijtimoiy vazifalarni, ya'ni shaxsni, odamni inson qilib shakllantirish va tarbiyalash vazifasini bajaradi. Madaniyat har bir shaxsning insoniyat yaratgan bilimlarni, ma'naviy qadriyatlarni, tartib-qoidalarni o'zlashtirib olish, tarbiyalash, jamiyatning to'la huquqli a'zosi sifatida faoliyat yuritish o'obilyatini shakllantirish vazifasini bajaradi. Insonning tabiat hukmronligidan ajralib chiqishi madaniyatga xos ayrim elementlarning shakllanishi bilan birga sodir bo'ladi. Aynan madaniyat orqali xar bir shaxs jamiyatda to'plangan tajribalarni, an'analar va urf-odatlarini turmush tarzini o'zlashtiradi, ular keyingi avlodlarga yetkaziladi.

“For students” treningi haqida:

Bu treninglar mutlaqo ixtiyoriy ravishda tashkil etilib, unda talaba-yoshlarni qiziqtirgan mavzu bo'yicha trening olib boriladi. Misol uchun haftasiga 1 marta eng dolzarb va qiziqarli 10 ta mavzu bo'yicha ijtimoiy tarmoqlarda ovoz berish jarayoni o'tkaziladi.

Eng kop ovoz yig'gan mavzu doirasida trening tashkil etiladi. Treningga tanlangan mavzu bo'yicha ko'p yillik tajribaga ega va qisqa vaqt ichida katta yutuqlarga erishgan soha mutaxassislari jalb etiladi. Misol uchun “Shaxsiy rivojlanish sari” mavzusi mehmonlari sifatida Toshqulov Abduqodir Hamidovich, Muhammadali Eshonqulov, Bahodir Jalolovlarni taklif etamiz.

Ushbu trening maruza darslaridan farqli ravishda kreativlik asosida otkaziladi va talaba-yoshlarning ixtiyoridan kelib chiqib mavzu tanlanadi hamda eng muhimi ishtirok etish istagida bo'lgan talabalar jalb etiladi. Darslar nafaqat faollar zalida, tabiat qo'ynida yoki mavzu yanada tushinarliroq bo'lishi uchun unga mos atmosferali joyda o'tkaziladi. Bu kabi trenninglar tashkil etish orqali yoshlarni bosh vaqtni mazmunli o'tkazishlarini ta'minlash, o'zlarini qiziqtirgan barcha savollarga mutaxassislardan javob olishiga erishish mumkin.

Yoshlar qanchalik manaviy barkamol bo'lsa, turli yot illatlarga qarshi immunitet ham shunchalik kuchli bo'ladi. Har qanday davlatning tarixiy taraqqiyot yolidan ma'lumki, yurtning jadal rivojlanishi, muayyan yutuqlarga erishishi, xalqning farovon bolishi osha davlatda yoshlar talim-tarbiyasi va kelajagiga beriladigan e'tibor darajasiga bog'liq.